XALQ DEPUTATLARI ZAFAROBOD TUMAN KENGASHI
QARORI

2023 - yil 22 - avgust VI-58-85-3-50-K/23 Zafarobod tuman hokimligi

Tumandan O’zbekiston davlat san’at va madaniyat institutiga o‘qishga qabul qilingan talabalarning to‘lov kontrakt pullarini to‘lash uchun mablag‘ ajratish to‘g‘risida

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2020 yil 25 dekabr kuni mamlakatimiz yoshlari bilan videoselektor tarzida o‘tkazilgan O’zbekiston yoshlari forumining 100-son bayonida berilgan vazifalar ijrosini ta’minlash hamda O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 21 yanvardagi 01-07/1-1400-sonli yig‘ilish bayoni ijrosini ta’minlash maqsadida O’zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, “Budjet kodeksi”ning 126-moddalariga muvofiq, Xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Tuman budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan amalga oshiriladigan tadbirlarni umumlashtiruvchi komissiyaning 2023 yil 22 avgustdagi 02-81-sonli xulosasi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Do‘stnazarov)ga tumandan O’zbekiston davlat san’at va madaniyat institutiga qabul qilingan talabalarning to‘lov kontrakt pullarini to‘lash uchun tuman mahalliy budjetining 2023 yil 2-chorak yakuni bilan hosil bo‘lgan daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi mablag‘lari hisobidan 26 901 468 (yigirma olti million to‘qqiz yuz bir ming to‘rt yuz oltmish sakkiz) so‘m mablag‘ni tuman hokimligiga ajratish vazifasi topshirilsin.

3. Tuman hokimligi bosh hisobchisi v.v.b. S.Abduazimovga ajratilgan mablag‘dan maqsadli foydalanish vazifasi topshirilsin.

4. Tumani iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Do‘stnazarov)ga ajratilgan mablag‘larning maqsadli foydalanilishi ustidan nazorat o‘rnatsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining “Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya, yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi (E.Narmatov), tuman hokimining birinchi o‘rinbosari v.v.b. J.Adilov hamda tuman hokimining o‘rinbosari J.Suyarovlar zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi **Ў.Рахманов**